

SPIRTLICHIMLIKLAR VA GIYOHVANDLIKGA MOYIL O'SMIRLAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYAT

Akmaliddinova To'linoy Akmaliddin qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti 2-bosqich talabasi
Tel raqam : +998 97 335 44 40

Annotatsiya: Ushbu maqolada spirtli ichimliklar va giyohvandlikka moyillik bildirayotgan o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni, ahamiyati hamda samarali usullari yoritiladi. O'smirlar davrining psixologik xususiyatlari, muhit ta'siri va ijtimoiy omillarning salbiy xulq-atvor shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, profilaktika, rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlarida ijtimoiy pedagogning roli, oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamkorligining muhim jihatlari ochib beriladi. Maqolada o'smirlarni zararli odatlardan himoya qilish, ularning sog'lom turmush tarziga yo'naltirish hamda barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Abstract: This article discusses the content, importance and effective methods of socio-pedagogical activities with adolescents who are prone to alcohol and drug addiction. The psychological characteristics of adolescence, the role of environmental influences and social factors in the formation of negative behavior are analyzed. The role of the social educator in the processes of prevention, rehabilitation and social adaptation, important aspects of the cooperation of the family, educational institutions and society are also revealed. The article puts forward practical recommendations aimed at protecting adolescents from harmful habits, guiding them towards a healthy lifestyle and forming them as well-rounded individuals.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание, значение и эффективные методы социально-педагогической работы с подростками, склонными к алкогольной и наркотической зависимости. Анализируются психологические особенности подросткового возраста, роль влияния окружающей среды и социальных факторов в формировании негативного поведения. Также раскрывается роль социального педагога в процессах профилактики, реабилитации и социальной адаптации, важные аспекты сотрудничества семьи, образовательных учреждений и общества. В статье предлагаются практические рекомендации, направленные на защиту подростков от вредных привычек, направление их к здоровому образу жизни и формирование всесторонне развитых личностей.

Kalit so'zlar: Ijtimoiylashuv, giyohvandlik, o'smir, faoliyat, ichkilikbozlik, pedagogik faoliyat, ijtimoiy pedagog.

O'smirlar alkolizmi muammosini turli soha vakillari b shifokorlar o'qtuvchilar psixologlarni o'rganib uning sabab - oqibatlarini o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashganlar. Bunga ko'ra bolalarning alkogol mahsulotlariga odatlanib qolishi asosan ikki davrga bo'linadi.. Birinchi davrda - bolalar alkogol mahsulotlariga odatlanib qolishi ixtiyorsiz shaklda bo'ladi yani buning tavsifiga ko'ra asosiy sabablqr homiladorlik va emizish davrida spirtli ichimliklar iste'mol qilishi yoki mast holatda homilador bo'lishidir. Ota onalarning ichkilikbozlikning naslga salbiy ta'siri masalasiga qadimgi miqlarda ham misollarni ko'rishimiz mumkun. Tibbiyot asoschisi Gippokrat ham homiladorlik vaqtida alkogol mahsulotlarini iste'mol qiladigan ota - onalarning farzandlari ahmoqlik, epilepsiya kabi ko'plab kasalliklar rivojlanishini takidlab o'tadi. Shveysariyada XIX - asrdan boshlab maxsus mehribonlik uylarida tarbiya topayotgan mingdan ortiq yaramas bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan. Malum bo'lishicha ularning barchasi spirtli ichimliklar iste'mol qilgan ota - onalarning farzandlari ekanligini aniqlashgan. Ilm fan tomonidan to'plangan ma'lumotlar homilador ayol tomonidan spirtli ichimliklar iste'mol qilish oqibatimlari qanchalik og'ir ekanligini ko'rsatadi. Homilaning spirtli ichimliklardan zaharlanishi ayniqsa birinchi uch oyda ichki organlari va a'zolarining jadal shakllanishi bosqichi bo'ladi bu jarayonda tyrki rivojlanishga anomaliyalarga boshqacha qilib aytganda deformatsiyalarga olib keladi : qo'l oyoqlar to'liq yo'qligi, barmoqlarning birlashishi, jinsiy a'zolarining rivojlanishida nuqsonlar boshning kattaligi yuzdagi turli xil muammolar bo'lish va boshqalar. Ikkinchi davrda esa maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshi davrini o'z ichiga oladi, bu davrda bolaning pedagogik bilimlarining yetishmasligi etibor qaratadigan bo'lsak alkogol spirtli ichimliklar ishtahani oshiradi, anemiyani davolaydi uyquni yaxshilaydi spirtli ichimliklarga qiziqish paydo bo'lishiga olib keluvchi oilaviy ichkilikbozlik an'analari hisoblanadi. Biologik tadqiqotlar alkolizmning genetik jihatdan uzatilmasligini faqat ota - onadan olingan xarakterning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga moyillik uzatilishi ham isbotlangan. Bolalarda ichkilikbozliklikning rivojlanishida asosan ota - onaning salbiy xolatlari va namunalari, oiladagi ichkilikbozlik vaziyat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uchinchi davrda esa bu yoshlarda o'smirlik va o'spirinlik davri hisoblanadi. Yoshlar bu xolatga kelib qolishini asosiy sabablari asosial oilalar, ommaviy axborot vositalari, atrofidagi muhit, atrofidagi insonlar, turli xil reklamalar, bo'sh vaqtining yetishmasligi, alkolizmning oqibatlarini haqida bilimlarining yetishmasligi muammolardan chekinish. Bu davrda spirtli ichimliklarga jalb qilish shakllanisji odatiy xoldek bo'ladi, ko'p xolatlarida esa bolaning spirtli ichimliklarga qaramligini moyilligi oshib ketaveradi. Oila boshliqlarining bolalarning ko'z ongida doimiy va muntazam ravishda alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishi, oilaviy munosabatlarga, bolalarning axloqiy rivojlanishiga ham yomon ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi turdagi oilalarda bolalarning alkogol mahsulotlarini erta iste'mol qilishiga odatlanib qolishi ham sabab bo'lmoqda.

Oilalar o'rtasida munosabatlar : Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar ziddiyatlarga qurilgan. Bunday oilalarda uning a'zolari asosan bir birlari bilan salbiy munosabatda bo'ladilar. Bu esa oilalarda bola spirtli ichimliklarni ichish asosida o'z norozilik reaksiyalarini bildiradi. Bunday norozilik faol hamda passiv bo'lishi mumkin. Faol norozilik natijasida bolalar uyidan qochib chiqib ketishi hamda narsalarni og'irlab ketish xolatlari ham uchraydi.

Asosial oilalar : bunday oilalar turmush darajasi juda past bo'lib, bolalar ustidan umuman nazorat bo'lmaydi bolalariga etibor ham qilmaydi. Bunday oilalarning bolalari dunyoqarashi past xayotga nisbatan agressiv munosabatda bo'ladi. Maxsus adabiyotlarda alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish moyilligi bo'lgan shaxsini ham to'rt turga bo'lishgan.

- 1.O'ziga yuqori baho beradigan, tanqidni qabul qilmaydigan bolalar.
- 2.Shavqatsizlik va tajavuzkorlik hissi oshgan bolalar.
- 3.qarovsizlikni yuqori darajasi tufayli ijtimoiylashgan bolalar.
- 4.Depressiya va turg'unlikka moyil bo'lgan bolalar.

Bolalarning spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga odatlanib qolish darajalari. O'smirlar o'rtasida o'tkazilgan maxsus tadqiqotlar asosida maktab o'quvchilarining alkogolga odatlanib qolishi darajalari holatlari o'rganilib, uni quyidagi darajalari ham aniqlangan.

1.Boshlang'ich darajasi : - O'zini kattalardek his qiladi. Hammaga o'xshashga harakat qiladi.

2 Namoyishkorona iste'mol qilish darajasi : - Kayfiyatini ko'taradi. O'ziga ishonchi ortadi. Muloqotga kirishishi darajasi ortadi.

3.Yuqori darajadagi xavf : - asablarini tinchlantiradi. quvnoq bo'ladi.

4.Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga ruhiy bog'lanib qolish darajasi : - vaqtinchalik real hayotdan uzoqlashadi. O'ziga ishonchi ortadi.

5.Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga jismoniy bog'lanib qolish darajasi : - yomon kayfiyatini bartaraf etish. Real xayotdan uzilib qolishi. Xayotdagi movqeyini oshirishi.

Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga moyil bolalar bilan ijtimoiy pedagogik va profilaktik reabilitatsiya tadbirlari majmui shaklida shuningdek bolalar hayotining turli sohalarida tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bunday ijtimoiy pedagogik faoliyat quyidagi tamoyillarga asoslanadi. Bolaga individual shaxsiy yondashuv, bola shaxsining ijtimoiy tomonlama tayanidhi, bolaga yondashuvning maxfiyligi. Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga moyil bo'lgan o'smirlar bilan pedagog faoliyatni maqsadi : bolalarning alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga yordam beradigan salbiy omillarini bartaraf etish. Mazkur salbiy omillarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi omil : - individual - aqliy shaxs xususiyatlarini buzilishi, motivatsion sohaning deformatsiyasi, muloqot qobiliyatining yetishmasligi, pedagogik beparvolik, bolaning aqliy rivojlanishdan kechikishi.

Ikkinchi omil : - individual somatik jismoniy rivojlanishda qoloqlikga olib keluvchi alkolizmga, irsiy somatik kasalliklarga moyil bola mavjudligi nazarda tutiladi.

Uchinchi omil : - kattalar tomonidan bola huquqlarining buzilishi, bolani noqonuniy harakatlarga jalb qilish, oilaning ijtimoiy movqeyining pastligi, oiladagi o'zaro munosabatlarning salbiy xarakteri.

To'rtinchi omil : - shaxsga salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy pedagogik iqlim, guruh ijtimoiy movqeyining pastligi.

Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga moyil bo'lgan bola bilan ishlashda ijtimoiy pedagogik faoliyatdagi asosiy yo'nalishlari.

1. Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga moyil bo'lgan bolalarning shaxsiy rivojlanishi orqali ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish bo'yicha turli tadbirlar.

2. Bolalar alkogolizmining zararli ta'sirlarini ko'rgazmali namoyish etuvchi tadbirlarini tashkil etish jarayonidagi bolalarda spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga salbiy munosabatlarni shakllantirish.

3. Oila salomatligini, uning turmush tarzini va a'zolari o'rtasidagi munosabatlar madaniyatini yaxshilash maqsadida ota - onalarni tarbiyalash tadbirlari ;

4. Alkogol mahsulotlariga qaram bo'lgan bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasini tashkil etish ;

5. Bola va atrofdagi jamiyat o'rtasidagi vositachilikni buzilish xolatlarini bartaraf etish. O'z faoliyatini ijtimoiy pedagogik faoliyat ham muhim rol o'ynaydi.

Spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga moyil bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyatda markaziy o'rinni axloqiy - ijtimoiy tarbiyaning bir qismi bo'lgan va bolalarda yoshligidan spirtli ichimliklarga salbiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan ichkilikga qarshi tarbiya berilishi kerak. Deviant xulq-atvorli bolalar, o'smirlar va yoshlarni ichkilikbozlikka qarshi qilib tarbiyalashdan maqsad ularni ijtimoiy normalarga qaytarish. Ijtimoiy norma - shaxsning ijtimoiy layoqati moslashuvi uning yaxlitligi, uyg'unligi, o'z harakatlarini tanqidiy baholay olishi, shuningdek boshqalarning xatti-harakatlarining faoliyati va izchilligi bilan tavsiflanadi. Spirtli ichimliklarni suiste'mol qilish spirtli ichimliklarga qaramlik bunday huquqbuzarliklar individual tarbiyaviy ishlar markazida amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagog bolalar ichkilikbozligini oldini olish, bartaraf etish yo'llari uchun oila, maktab jamoasi, o'smirlar bilan individual, guruhli jamoaviy shakllarda ish olib borib hamda mazkur yo'nalishlardagi faoliyat davomida quyidagi holatlarga e'tibor qaratish kerak.

1. Ichkilikbozlikning saba hamda oqibatlarini aniqlash va uni profilaktika qilish.

2. Ichkilikbozlikka odatlanib qolgan o'smirlarning bosh vaqtlarini to'g'ri taqsimlash.

3. Ichki bozlikni bartaraf etishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni muntazam olib borish.

Spirтли ichimliklar va giyohvandlikka moyil o'smirlar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlar profilaktika, diagnostika va reabilitatsiyaga qaratilgan. Bunda oila, maktab va psixologlar hamkorligida deviant xulq-atvorni tuzatish, sog'lom turmush tarzi motivatsiyasini oshirish, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish hamda huquqiy savodxonlikni oshirish asosiy chora-tadbirlar. Asosiy ijtimoiy-pedagogik faoliyat yo'nalishlari: Profilaktik ishlar: O'smirlarga spirтли ichimliklar va narkotik moddalarning sog'liq, aqliy rivojlanish va ijtimoiy hayotga salbiy ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish.

Diagnostika va monitoring: Moyillik darajasini aniqlash, xavf guruhidagi o'smirlarni ro'yxatga olish va ularning xulq-atvoridagi o'zgarishlarni kuzatish.

Reabilitatsiya va korreksiya: Psixologik maslahat, individual va guruhli treninglar orqali o'smirning o'z-o'zini hurmat qilish hissini oshirish va muammolarni yengish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish: Oilaviy munosabatlarni yaxshilash, otalar bilan ishlash, o'smirni jismoniy tarbiya, to'garaklar va ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish.

Huquqiy va ma'rifiy ishlar: Yoshlar o'rtasida zararli odatlarga qarshi kurashish bo'yicha seminar va davra suhbatlari tashkil etish.

Xulosa: Spirтли ichimliklar va giyohvandlikka moyil o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat — bu jamiyat kelajagini asrashga qaratilgan muhim va mas'uliyatli jarayondir. O'smirlik davrining murakkab psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit ta'siri va noto'g'ri yo'naltirilgan qiziqishlar ularni zararli odatlarga yetaklashi mumkin. Shu sababli, bunday holatlarning oldini olishda faqatgina taqiqlash yoki jazolash emas, balki tushuntirish, qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'naltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Samarali ijtimoiy-pedagogik faoliyat oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning o'zaro hamkorligiga tayanadi. Ayniqsa, ijtimoiy pedagoglarning individual yondashuvi, profilaktik ishlar, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda o'smirlarning ijobiy qiziqishlarini rivojlantirish muhim natijalar beradi. Xulosa qilib aytganda, o'smirlarni zararli odatlardan himoya qilish — bu faqat muammoni bartaraf etish emas, balki ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirib, sog'lom, ongli va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Boboqulova Dilfuza Mengliboyevna - Ijtimoiy pedagogika "Darslik" T 2025 "Firdavs shoh nashriyoti".
2. M. Q. Raxmanova - Ijtimoiy pedagogika Daslik T : Malik print co nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi " Ta'lim to'g'risida qonuni" O'RQ 637 - son 2020 - yil

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ Uzluk ma'naviy tarbiy kkonsepsiyasi. 1059 - son qarori 3019 - yil 31 - dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining “ Pedagogning maqomi to'g'risida” gi qonuni O'RQ 901 - son qonuni. 2024 - yil 1 - fevral.
6. M.Q.Bozorova A. R. To'raqulov - “ Ijtimoiy pedagogika” o'quv qo'llanma Termiz Publishing Centrel nashriyoti. 2025 - yil 140 - bet.
7. N.Egamberdiyeva - Ijtimoiy pedagogika Darslik : Toshkent 2009 - yil.
8. Rohila Mavlonova “ Ijtimoiy pedagogika” o'quv qo'llanma. Toshkent Istiqlol nashriyoti. 2025 - yil.